



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

MULOQOT SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI SO'ZNING MORFOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

Rahimov Usmonjon Ergashevich

Andijon davlat universiteti, dotsent, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada muloqot samaradorligini ta'minlashda yordamchi so'zlarning, xususan, ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalarning morfopragmatik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu birliklarning nutq jarayonida presuppozitsiya hosil qilishi, eksplitsit va implitsit hukmlarni yuzaga chiqarishi hamda gapning mazmuniy murakkablashuviga ta'siri "ham" yuklamasining qo'shimcha ma'no, ta'kid, takroriylik va qo'shib hisoblash kabi pragmatik vazifalari asosida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: morfopragmatika, pragmalingvistika, yordamchi so'zlar, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, presuppozitsiya, eksplitsit hukm, implitsit hukm, kommunikativ muloqot, muloqot samaradorligi.

ИССЛЕДОВАНИЕ MORFOPRAGМАТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ СЛОВ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОММУНИКАЦИИ

Рахимов Усмонжон Эргашевич

Андижанский государственный университет, доцент, независимый исследователь

Аннотация

В статье анализируются морфопрагматические особенности служебных слов, в частности послелогов, союзов и частиц, в обеспечении эффективности коммуникации. Кроме того, раскрывается роль данных языковых единиц в формировании presuppositions в процессе речевого общения, выражении эксплицитных и имплицитных суждений, а также их влияние на семантическое усложнение высказывания. Особое внимание уделяется прагматическим функциям частицы *ham* («тоже», «также»), таким как выражение дополнительного значения, акцентуации, повторяемости и включения в общий ряд.

Ключевые слова: морфопрагматика, прагмалингвистика, служебные слова, послелог, союз, частица, presupposition, explicit proposition, implicit proposition, communicative interaction, communicative effectiveness.

A STUDY OF THE MORPHOPRAGMATIC FEATURES OF WORDS ENSURING COMMUNICATIVE EFFECTIVENESS

Rahimov Usmonjon Ergashevich

Andijan State University, Associate Professor, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the morphopragmatic features of function words, particularly postpositions, conjunctions, and particles, in ensuring communicative effectiveness. Furthermore, the study reveals how these linguistic units generate presuppositions in the speech process, give rise to explicit and implicit propositions, and contribute to the semantic complexity of utterances. Particular attention is paid to the pragmatic functions of the particle *ham* ("also/too"), including its roles in conveying additional meaning, emphasis, repetition, and inclusiveness.

Keywords: morphopragmatics, pragmalinguistics, function words, postposition, conjunction, particle, presupposition, explicit proposition, implicit proposition, communicative interaction, communicative effectiveness.

Pragmalingvistik sistemaning elementlaridan bo'lgan yo'nalishlardan biri morfologik pragmatika (morfopragmatika) hisoblanadi. Unda morfologik birliklarning kommunikativ muloqotda pragmatik ma'nolarga ishora qilib, mazmuniy murakkablikni yuzaga keltirishi, muloqot samaradorligini ta'minlashi tahlil qilinadi. Yordamchi so'zlar morfologiyada ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, alohida so'z guruhlari – modal, taqlid va undov so'zlarga bo'lib o'rganiladi.

Biz tadqiqotimizning maqsadidan kelib chiqib, yordamchi soʻzlarning morfologik belgilarini emas, ularning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish yoʻlidan bordik.

Koʻmakchilarning leksik maʼno anglatmasligi barchaga ayon. Lekin ular nutqiy jarayonda pragmatik jihatdan bitta gapga teng boʻlgan mazmun ifodalab, nutqning samaradorligini taʼminlaydi. Qoʻshimcha pragmatik hukmni yuzaga keltiradi. Qoʻshimcha pragmatik hukm koʻmakchining ishorasi orqali anglashilgan presuppozitsiya sifatida yuzaga chiqadi [1, 42–45]. Gapning shakliy birliklari orqali ifodalangan eksplitsit hukmga qoʻshimcha tarzda implitsit hukm presuppozitsiya tarzida anglashiladi. Masalan, Javonda kitobdan boshqa hamma narsalar bor edi (Tohir Malik. Shaytanat) gapida quyidagicha holat mavjud: Eksplitsit hukm – javonda hamma narsa bor edi. Implitsit hukm: 1. Kitob yoʻq edi. 2. Kitob bor deb oʻylangan.

Eksplitsit hukm gapning shakliy tuzilishidagi boʻlaklar orqali ifodalangan. Implitsit hukm “boshqa” koʻmakchisining presuppozitsiyasi orqali anglashilmoqda. Chunki “boshqa” koʻmakchisi ajratish grammatik maʼnosi orqali munosabatni yuzaga keltirgan. Natijada mavjudlik maʼnosining ichidan mavjud emaslikni ajratib, presuppozitsiya anglatmoqda. Gapning mazmuniy murakkablashuvini yuzaga keltirib, muloqot samaradorligini taʼminlamoqda. Muloqot ssenariysida “kitobning bor yoki yoʻqligini aniqlash” borligi uchun muloqot strategiyasi ham shunga qaratiladi. Soʻzlovchining maqsad geshtalti yuqoridagi gap orqali moddiylashadi va illokutiv akt yuzaga chiqadi, illokutiv akt orqali taʼsirlangan tinglovchida pragmatik taʼsir yuzaga chiqadi. Tinglovchi ongida yuqoridagi eksplitsit va implitsit hukmlar paydo boʻladi. Bu gapda “boshqa” koʻmakchisining oʻrniga “boʻlak”, “tashqari” koʻmakchilarini almashtirganimizda ham implitsit hukm oʻzgarmaydi. Demak, koʻmakchilar ishtirok etgan gaplarda mazmuniy murakkablik koʻmakchilar orqali anglashilgan presuppozitsiyalar taʼsirida yuzaga keladi va gapning kommunikativ tuzilishining muhim va nomuhim birliklarini ham oʻzgartirib yuboradi. Yaʼni, tema va rematik boʻlinishini (aktual tuzilishini) oʻzgartirib, tema – hamma narsa bor, rema – kitobdan boshqa tarzidagi holatni keltirib chiqaradi. Aslida koʻmakchi ishtirok etmaganda, aksi boʻlishi kerak edi.

METODLAR VA OʻRGANILISH DARAJASI. Bogʻlovchilar ham gapning mazmuniy murakkablashishiga taʼsir qiladi. Bogʻlovchilar nutqiy jarayonda turli xil presuppozitsiyalar anglatib, implitsit hukmga ishora qiladi. Masalan, Bahor keldi, lekin kunlar isimadi gapida lekin zidlov bogʻlovchisi bahor soʻzining tinglovchidagi tasavvurini oʻzgartirib, boshqa oʻzanga burib yubormoqda. Aslida tinglovchida bahor soʻzining assotsiatsiyasi orqali “kunlar isishi, olam yashilga burkanishi, qushlarning uchib kelishi, dala ishlarining boshlanishi, odamlar yengil ust-bosh kiyishi, suvlarning shildirab oqishi va h.k.” kabi tushunchalar paydo boʻlishi kerak edi. Soʻzlovchi lekin bogʻlovchisi bilan portlash effektini boshqa tomonga burib yubordi. Bu holat lekin bogʻlovchisining presuppozitsiyasi orqali bajarildi. Natijada gapda:

1. Bahor keldi – eksplitsit hukm.
2. Kunlar isimadi – implitsit hukm.
3. Bahor kelmadi deb oʻylangan – implitsit hukm.
4. Kunlar isishi kerak edi – implitsit hukmlar anglashilmoqda.

Yordamchi soʻzlar ichida yuklamalarning pragmatik imkoniyati keng, presuppozitsiya anglatishi kuchli hisoblanadi. Yuklamalarning grammatik bagʻrida maʼno jilosi berish vazifasi presuppozitsiyaga taʼsir etadi. Natijada xilma-xil presuppozitsiyalarga ishora qilib, gapni mazmuniy murakkablashtiradi.

Ham soʻzi yuklama vazifasida kelganda, soʻz maʼnosini kuchaytirish, taʼkidlash kabi maʼnolarni ifodalash bilan birga, mazmuniy tuzilishning bir elementi boʻlgan presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi vosita boʻlib ham kela oladi.

Ham yuklamasi koʻp hollarda qoʻshimcha maʼno yuklayotgan soʻzdan keyin keladi va oʻzi qoʻshilib kelgan soʻz bilan birgalikda alohida propozitsiya ifodalaydi. Shuning uchun bu yuklama ishtirok etgan gaplarning mazmuniy tuzilishi murakkab boʻlib, doimo ikki propozitsiya ifodalanadi. Masalan: Kirganlarning yuzi tundligini koʻrib, byuroning oxiri ham yaxshi boʻlmaganini sezdi (P. Qodirov. Uch ildiz. 61-bet) gapining mazmuniy tuzilishi murakkab, chunki

bu gapda ikki propozitsiya ifodalangan: birinchi propozitsiya – Kirganlarning yuzi tundligidan byuroning oxiri yaxshi bo'lmaganini sezdi; ikkinchi propozitsiya gap tarkibidagi sintaktik bo'laklar (gap konstituentlari) orqali eksplitsit (aniq) ifodalangan, ikkinchi propozitsiya ham yuklamasi orqali implitsit (yashirin) anglashilgan. Yashirin ifodalangan ikkinchi propozitsiya ham yuklamasining presuppozitsiyasi hisoblanadi. Agar biz ham yuklamasini tushirib qoldirsak, formal-grammatik jihatdan g'alizlik sezilmasa-da, lekin gapning mazmuniy tuzilishidagi ikkinchi propozitsiya anglashilmaydi.

Ham yuklamasi presuppozitsiyaga ishora qiluvchi sermahsul vositalardan biri hisoblanadi. Bu yuklama turli xil ma'nodagi presuppozitsiyaga ishora vositasi bo'la oladi. Masalan, qo'shib hisoblash, birgalik ma'nosini ifodalovchi presuppozitsiya [2]. Uyning eshigi ham ochiq edi (S. Zunnunova. Go'dak hidi. 36-bet). Propozitsiya – uyning eshigi ochiq edi. Presuppozitsiya – uyning derazalari ham ochiq ekanligi. Bu gapda ham yuklamasi eshik so'ziga qo'shilib, presuppozitsiya anglatmoqda. Gapda ochilishi mumkin bo'lgan uyning elementlari, ya'ni eshik so'ziga yaqin bo'lgan tushunchalar ham yuklamasi orqali anglashilmoqda va uyning eshigi bilan birga derazalari hamda ochilishi mumkin bo'lgan elementlari ochiq ekanligi ta'kid orqali reallashmoqda. Bu gapda eshikning ochiqligi to'g'risidagi hukm predikat orqali aniq anglashilgan, derazaning ochiqligi to'g'risidagi hukm presuppozitsiya orqali tushuniladi. Yuqoridagi tipli gaplarda predikatning qanday shaklda bo'lishi hukmga ta'sir etadi. Agar predikat tasdiq shaklida bo'lsa, hukm ham tasdiq xarakterida bo'ladi yoki aksincha. Ham yuklamasi ishora qilayotgan presuppozitsiya orqali anglashilayotgan yashirin hukm bir-biriga to'g'ri proporsional bo'ladi.

Ham yuklamasi ishtirok etgan gaplarda presuppozitsiya ta'kidlanayotgan so'z va ham yuklamasi orqali yuzaga keladi. Chunki ham yuklamasi o'zi ta'kidlayotgan so'z orqali shu so'zga yaqin, jinsdosh, ma'nodosh tushunchalarga ishora qiladi va presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Masalan: U kitob ham o'qiydi gapida ta'kidlanayotgan bo'lak kitob. Gapning sintaktik bo'laklari orqali anglashilgan propozitsiya – u kitob o'qiydi. Presuppozitsiya esa – u gazeta, jurnal va boshqa o'qilishi mumkin bo'lgan predmetlarni o'qiydi. Ko'rinadiki, gapning sintaktik qurilishida mavjud bo'lgan kitob o'ziga yaqin, jinsdosh gazeta, jurnal va boshqalar, ya'ni o'qilish uchun obyekt bo'la oladigan predmetlar ham yuklamasi vositasida anglashilmoqda. Bu gapda nafaqat kitobdan boshqa narsalarni o'qiy olishi, balki boshqa hunarlarga ham ega ekanligi tushunilishi mumkin. Shuning uchun presuppozitsiyani tahlil etayotganda faqat ham yuklamasining o'zidan kelib chiqmay, balki shu yuklama bog'lanib, ta'kidlanayotgan, kuchaytirilayotgan bo'lakning ma'nosini ham birgalikda olish kerak bo'ladi. Chunki mazmuniy tuzilishda ham yuklamasi o'zi yakka holda propozitsiyaga asos bo'la olmaydi. Yuqoridagi gapdan “boshqa hunarlarni ham biladi” presuppozitsiyasining yuzaga kelishi so'zlovchi va tinglovchining kommunikativ niyatiga bog'liq. Agar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida biror kishining o'qiy olishi xususiyati haqida gap ketsa, “boshqa narsalarni ham o'qiydi” presuppozitsiyasi yuzaga keladi yoki “biror kishining bir qancha hunarlarni bilishi” xususiyati haqida suhbat bo'lsa, albatta, “kitob o'qishdan tashqari yana boshqa narsalarni ham qila oladi” presuppozitsiyasi anglashiladi.

Erkaklarga ham tushuntirganman (A. Qahhor, Asarlar, I tom, 121-b.) gapida ham ko'rib o'tilgan holatni kuzatish mumkin. Bu gapda ochiq propozitsiya – erkaklarga tushuntirgan, yashirin propozitsiya – presuppozitsiya – ayollarga ham tushuntirgan ekanligi. Presuppozitsiyaga ham yuklamasi ishora qilyapti. Ham yuklamasi “erkaklar” so'ziga bog'lanib, bu so'zni ta'kidlayapti. Shu ta'kidlanayotgan so'z bilan birgalikda presuppozitsiyani yuzaga keltiryapti. Presuppozitsiyada erkaklar so'zidan jins jihatdan boshqa bo'lgan ayollar so'zi tushunilmoqda. Lekin jins jihatdan boshqa-boshqa bo'lsa ham, har doim erkak so'zini eshitgan kishi ongida ayol so'zi ham gavdalanadi. Bu gapda ayol so'zining anglashilishiga ham yuklamasi ishora qilyapti. Demak, ham yuklamasi o'zi bog'lanib, ta'kidlab, kuchaytirib kelayotgan bo'lakka yaqin, jinsdosh, ma'nodosh tushunchalarga ishora qilish orqali presuppozitsiya anglatib qolmay, balki qarama-qarshi, antonimik munosabatdagi tushunchalarga ishora qilish orqali ham presuppozitsiya anglatishi mumkin ekan. Chunki antonimik munosabatdagi so'zlarning, tushunchalarning biri

tabiatan ikkinchisini yodga soladi. Masalan: yaxshi-yomon, katta-kichik, baland-past va h.k. Gap tarkibida biri orqali ikkinchisi anglashilishi uchun faqat informator, signalizator kerak bo'ladi. Ham yuklamasi xuddi o'sha signalizator vazifasini o'tab, bizga ishora qiladi. Tinglovchi esa antonimik munosabatda bo'lgan tushunchalarning ikkinchi komponentini ham yuklamasining ishorasi orqali gapning sintaktik qurilishida ifodalanmagan bo'lsa ham, tushunaveradi. Chunki tinglovchi va so'zlovchining umumiy bilish xazinasida o'sha tushunchalarning izi avvaldan mavjud, faqat ishorasi bo'lsa kifoya.

TADQIQOT NATIJALARI. Ham yuklamasi antonimik munosabatdagi tushunchalarga ishora qilish orqali presuppozitsiyani yuzaga keltirgan holatlarda bu yuklama tushib qolsa ham, presuppozitsiya anglashilaveradi. Faqat lingvistik presuppozitsiya anglashilmay, logik presuppozitsiya anglashiladi [3]. Masalan: Erkaklarga tushuntirganman gapida presuppozitsiya – ayollarga tushuntirmaganligi hisoblanadi. Bu presuppozitsiya mantiqiy jihatdan yuzaga kelgan. Ammo bunday holatlarda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ niyatni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Agar "Erkaklarga tushuntirdingmi?" savoli berilsa, tinglovchidan "Ha, erkaklarga tushuntirganman" degan javob olinsa, presuppozitsiya yuzaga kelmaydi. Faqat so'zlovchining aytgan fikri tasdiqlanadi, xolos. Agar "Ayollarga tushuntirdingmi?" so'rog'i berilganda, "Erkaklarga tushuntirganman" javobi olinsa, unday hollarda presuppozitsiya haqida gapirish mumkin bo'ladi. Shuning uchun yuqoridagi "Erkaklarga ham tushuntirganman" gapidagi singari presuppozitsiya anglashilmay qolmaydi, faqat presuppozitsiyaning ma'nosi o'zgaradi, xolos.

Ham yuklamasi takroriylik ma'nosini ifodalovchi presuppozitsiyaga ishora vositasi bo'lib kelganda, ko'p hollarda payt ma'nosini bildiruvchi so'zlar bilan bog'lanib keladi va kesimdan anglashilgan ish-harakatning takroriylikni ko'rsatish orqali presuppozitsiyani yuzaga keltiradi. Kesimdan anglashilgan ish-harakatning takroriylik shakl jihatdan gapda ishtirok etmagan bo'lsa-da, ham yuklamasining ishorasi tufayli yashirin tushuniladi. Masalan: Vazira bugun ham shunday ahvolda tong ottirdi (S. Zunnunova. Go'dak hidi. 127-bet) gapida gapning mavjud bo'laklari orqali ifodalangan ochiq propozitsiya – Vazira bugun ham shunday ahvolda tong ottirganligi; presuppozitsiya – Vaziraning ahvoli avvalgi kunlari ham bugungiday ekanligi. Bu gapda Vaziraning tong ottirishdagi holati davomiy, ya'ni avvalgi kunlaridagi holat bugun ham takror bo'lganligiga ham yuklamasi va payt bildiruvchi "bugun" so'zi ishora qilyapti. Qora yigit kechqurun ham keldi ("Sharq yulduzi") gapida ish-harakatning qaytarilishi bir kun ichida bo'lganligi, lekin kunning ma'lum vaqtlarida qaytarilganligi yashirin anglashiladi. Solishtiring: 1. Propozitsiya – Qora yigit kechqurun keldi. 2. Presuppozitsiya (biz bundan keyingi sharhlarda yashirin propozitsiya deyish o'rniga presuppozitsiya deyishni ma'qul ko'rdik) – Qora yigit kunduzi ham kelgan. Bu gapda (umuman, presuppozitsiyaga ko'ra gaplar shakl jihatdan ixchamlashadi) til taraqqiyotining yetakchi tendensiyalaridan biri bo'lgan til ekonomiyasi hodisasi ko'rinadi.

XULOSA. Umuman, mazmuniy tuzilishining murakkab bo'lishi, mazmuniy tuzilish elementlaridan biri bo'lgan presuppozitsiyani reallashtiruvchi vositalar ichida eng ahamiyatlisi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmonov A. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi (-dan tashqari konstruksiyasi) // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986. – № 6. – B. 42–45.
2. Rahimov U. E. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi: filol. fan. nomz. ... diss. – Samarqand, 1994. – 120 b.
3. Rahimov U. E. O'zbek tilida pragmatika va presuppozitsiya hamda matnning konseptologik tadqiqi: monografiya. – Andijon: «Omadbek Print Number One» MCHJ, 2026. – 297 b.
4. International Journal of Speech-Language and Linguistics [Elektron resurs]. – URL: <https://utppublishing.com/journal/ijsl>
5. Green Research Journal [Elektron resurs]. – URL: <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/8528/8266>